

DIALEKTOLOGIYA SOHASIDA ANDIJON SHEVALARINING O'RGANILISHI

Alimbekova Vazira Xalimjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8146268>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyati shevalarining xususiyatlari bugungi kunga qadar tilshunoslar tomonidan o'rganilishi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: dialect, sheva, lahja, fonetik xususiyat, leksik xususiyat, grammatik xususiyat.

“Mamlakatimizda fan-texnikaning, madaniy hayotning shiddat bilan yuksalishi va taraqqiyoti adabiy til mavqeini yanada kuchaytirish zarurati yuzaga chiqarmoqda. Buning natijasida mahalliy til - shevalarning fonetik, leksik va grammatik tarkibida o'zgarishlar, tarkibida o'zgarishlar, torayishlar sodir bo'lmoqda. Shuning uchun dialekt va shevalarga xos fonetik-fonologik xususiyatlarni qayd qilish, ularning barcha lingvistik jihatlarini chuqur tavsifiy-qiyyosiy, qiyyosiy-tarixiy, mental tamoyillar asosida atroflicha o'rganish, tadqiq qilish hozirgi zamon o'zbek tili taraqqiyot yo'lini va shu til egasi bo'lgan xalqlar tarixi, tili, etnografiyasini o'rganishda muhim nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Zero, ...odamzod borki, avlod ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanimizning tarixini bilishni istaydi”¹. Shevalarimizni o'rganish orqali biz nafaqat ona tilimizni o'rganibgina qolmay, balki xalqimiz madaniyati, tarixi haqida ham noyob va nodir ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Andijon viloyati shevasi leksikasidagi xilma-xilliklar, boshqa shevalarda takrorlanmas lisoniy birliklar bilan tilimizning lug'at boyligini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Buning isboti o'laroq Zahiriddin Muhammad Bobur, Cho'lpon, Muhammad Yusuf kabi o'z davrining o'tkir qalam sohiblari tomonidan yozilgan asarlarni o'qiganimizda yuqorida keltirilgan fikrlar nechog'lik o'z tasdig'ini topganiga guvoh bo'lamiz. Andijon viloyati shevasi bugunga qadar bir qancha tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Hudud shevasining leksik, grammatik xususiyatlari ko'p o'rinlarda tahlilga tortilgan. Jumladan, quyidagi olimlar tomonidan o'rganilgan V.V.Radlov, F.E.Korsh, A.K. Borovkov, G'ozi Olim Yunusov, S. Ibrohimov, A.Mamatov va boshqalar.

Andijon Shevasi olimlar tomonidan quyidagicha tasniflangan: akademik V.V.Radlov tasnifida bu sheva to'rt a'zoli III gruppaga yoki O'rta Osiyo gruppasiga kirishi aytib o'tilgan bo'lsa, F.E.Korsh tasnifida aralash yoki “sharq” guruhiga kirishi aytilgan.

Professor A.K. Borovkov tasnifida I (“o” lovchi) gruppaga yoki “o” lanuvchi gruppaning “y” lovchi (“yo'qchi”) qismiga kirishi ta'kidlangan. V. V. Reshetov tasnifida esa qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining Farg'ona gruppasiga kiritilgan.

Sobirjon Ibrohimovning “O'zbek tilining Andijon shevasi” kitobida yozilishicha, “...nemis tilshunosi Stefan Vurm Ulug' Vatan urushi yillari nemis fashistlariga asir tushgan ba'zi tasodifiy kishilar bilan suhbat o'tkazib, 1945-yili nemis tilida “Der o'zbekische Dialekt von Andidschan” nomli kitob nashr ettirgan. Bu kitob so'z boshi va “Dastlabki mulohazalar” dan tashqari, fonetika, morfologiya bo'limlariga bo'linadi va oxirida andijon shevasiga oid matnlar berib o'tiladi. S.Vurmning bu ishi aslida andijon shevasi yuzasidan ba'zi kuzatishlar harakterida bo'lib, shevaning fonetik va morfologik xususiyatlarini to'liq va to'g'ri yoritib

¹ Иброҳим Д. Ареал тилшунослик: жануби –ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. 30-бет.

berolmaydi, unda ancha yanglish va chalkashliklar bor”.² Stefan Vurm Andijon shevasidagi unlilar sonini 14 tagacha deb unlilar (ö, j, e) sonini ko’p ko’rsatadi. Stefan Vurm andijon shevasini o’rganish jarayonida sheva vakillari nutqini maxsus plastinkaga yozib olib o’rgangan bo’lsa-da, ayrim fonetik va morfologik kamchiliklarga yo’l qo’yadi. Shevani to’liq va to’g’ri o’rganishda sheva vakilini to’g’ri tanlash ham katta ahamiyat kasb etadi. Turli xil sheva vakillari, boshqa til egalari bilan ko’p vaqt muloqotda bo’lgan shaxs nutqi, albatta, o’zgarishlardan holi bo’lmaydi. Stefan Vurm suhbatlashgan andijonliklar ham shulardan edi. Aynan shu omillar Stefan Vurmning andijon shevasini o’rganishdagi kamchiliklariga sabab bo’lgan.

Sobirjon Ibrohimovning 1967-yilda yozilgan “O’zbek tilining Andijon shevasi” deb nomlangan kitobida andijon shevasining fonetikasi va morfologiyasiga oid ko’plab ma’lumotlarga ega bo’lamiz. Kitobda andijon tarixidan tortib aholisi, hududi, andijon shevasini o’rgangan olimlar haqida ham ma’lumotlar berib o’tadi.

Andijon shevasini o’rgangan tilshunoslardan yana biri Aminjon Mamatovdir. Tilshunos o’zining bir qancha maqolalari va ilmiy ishlari bilan o’zbek tili rivojiga o’z hissasini qo’shgan. Jumladan, muallifning 2009-yili nashrdan chiqqan “Andijon tip shevalarda qarindosh-urug’ atamalarining qo’llanishi” nomli kitobi ham o’zbek tili leksikologiyasi uchun muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Qipchoq lahjasi vakillari yurtimizdagi eng ko’p tarqalgan lahjadir. O’zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to’g’ri ekanligiga dalildir. Andijon viloyati Qirg’iziston bilan chegaradosh viloyat bo’lganligi uchun, qolaversa, tarixda bu hududda qipchoqlar istiqomat qilgani uchun ham viloyatda qipchoq lahjasi vakillari ko’pchilikni tashkil etadi. Andijonning janubi-sharqiy hududlariga kiruvchi Qo’rg’ontepa, Jalaquduq, Xo’jaobod tumanlarining ko’p qishloqlari qipchoq lahjasida so’zlashadilar. G’ozi Olim Yunusov “O’zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba” kitobida Andijonning janubi-sharqiy hududidagi qipchoq lahjasida so’zlashuvchilar nutiqda lab uyg’unligining kuchli saqlanishi borligini ta’kidlagan va bu holat shevaning boshqa o’zbek-qipchoq guruhlaridan farqli ekanligini ta’minlaydi. Qipchoq shevasida lab uyg’unligi ikkinchi va uchunchi hijolarda ham saqlanadi: tãpãlãs (>topa olasiz), üjügö(>uyiga) kabi. Bu shevani o’zbek-qipchoq lahjasiga kirgan boshqa lahjalardan ajratadigan yana bir xususiyat -lak qo’shimchasining mavjudligidir. Shevada so’zlarga bo’lishsizlik semasini berish uchun -lak (>lãk) qo’shimchasidan foydalaniladi. Bu “...lak odati qirg’izchada va ba’zi Oltoy shevalarida ishlatiladi. Bu qipchoq shevasida “ U bora lak” demak u kelgani yo’q demakdir”.³ Yuqorida ko’rsatib o’tilganiday -lak qo’shimchasi inkor ma’noni berish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda ham Qo’rg’ontepa (Dardoq, Qizilto’qay, Dehqonchek, Yangiyo’l), Jalaquduq (Abdullabiy, Ilich, Oxunboboyev, Marks) hududlarida shu ma’noda ma’noda qo’llanadi.

Sobirjon Ibrohimov o’zining “O’zbek tilining Andijon shevasi” nomli kitobida quyidagilarni yozadi: “Andijon shevasining xususiyatlari Andijon oblastlarida ham keng tarqalgan . Andijon (Oltinko’l), Lenin, Xo’jaobod, Izboskan va sobiq Jalaquduq, Oyim rayonlaridagi ko’pchilik qishloqlarning aholilari, asosan, andijon shevasida so’zlashadilar. Janubiy Qirg’izistonning

²Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси.16-бет.

³ Ғози Олим Юнусов Ўзбек лаҳжаларини таснифда бир тажриба.19-бет

O'sh, Jalolobod, O'zgand shaharlaridagi o'zbeklarning shevalari andijon shevasi bilan qariyb bir xildir. Shu sababli andijon shevasi tushunchasi keng doirani o'z ichiga oladi".⁴

Xulosa qilib aytish mumkinki, Andijon shevasi ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa ham, haligicha ushbu hududda o'rganilishi kerak bo'lgan o'rinlar talaygina. Shevalarni o'rganish nafaqat til rivojiga hissa qo'shibgina qolmay, xalqimizning o'tmishi, etnogenetik, etnografik xususiyatlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

References:

1. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фан нашриёти, 1967.
2. Маматов А. Андижон тип шеваларда қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. Тошкент - 2009
3. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси. – Тошкент, 1966.
4. Ғози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларини таснифда бир тажриба. –Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1935.
5. Иброҳим Д. Ареал тилшунослик: жануби –ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари: монография. 2019.
6. Ўзбек тили лексикологияси. - Тошкент: Фан, 1981